

**BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA KITOBXONLIK MADANIYATINI
SHAKLLANTIRISH**

<https://doi.org/10.70728/conf.edu.v3.i4.012>

Abduraxmonova Munira

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik ahamiyati, samarali metod va vositalari yoritilgan. Shuningdek, kitob o‘qishga qiziqishni oshirish, mutolaa ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda oila va maktab hamkorligining o‘rni tahlil qilingan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlash, nutq boyligi va ma’naviy dunyoqarashni rivojlantirishda kitobxonlikning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, kitobxonlik madaniyati, mutolaa, o‘quvchi, kitobga qiziqish, ma’naviy tarbiya, nutq rivoji, mustaqil fikrlash, oila hamkorligi, ta’lim samaradorligi.

Kirish

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlanayotgan davrda yosh avlodni ma’naviy yetuk, bilimli va mustaqil fikrlovchi shaxs etib tarbiyalash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda kitob va mutolaaning o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish kelgusidagi ta’lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan sanaladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari psixologik jihatdan qiziquvchan, taqlidchan va yangilikka intiluvchan bo‘ladilar. Shu sababli aynan ushbu davrda ularda kitobga mehr uyg‘otish, muntazam mutolaa qilish odatini shakllantirish, o‘qilgan asar mazmunini anglash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurdir. Kitobxonlik madaniyati o‘quvchilarning nutq boyligini oshiradi, tafakkur doirasini kengaytiradi hamda estetik didini tarbiyalayd. Shuningdek, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda maktab, oila va kutubxona hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchining to‘g‘ri yo‘naltirishi, otananing qo‘llab-quvvatlashi va sifatli bolalar adabiyotlari mavjudligi ushbu jarayonning samaradorligini oshiradi. Shu bois boshlang‘ich ta’limda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish masalasi bugungi kunda dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Metodlar

Boshlang‘ich ta’limda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish jarayonida tadqiqotning nazariy va amaliy metodlaridan foydalanildi. Avvalo, pedagogik, psixologik hamda metodik adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish orqali mavzuning ilmiy-nazariy asoslari yoritildi.

Ushbu metod yordamida kitobxonlik madaniyatining mazmuni, tarkibiy qismlari hamda uni rivojlantirishga oid mavjud yondashuvlar o'rganildi.

Kuzatish metodi orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitob o'qishga bo'lgan qiziqishi, dars jarayonidagi faolligi hamda mutolaa ko'nikmalari tahlil qilindi. Suhbat metodi asosida o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalarning kitobxonlikka bo'lgan munosabati, mavjud muammolar hamda takliflari aniqlandi.

So'rovnomma metodi yordamida o'quvchilarning qaysi turdagi kitoblarga qiziqishi, mutolaa qilish chastotasi va oilada kitob o'qish muhiti o'rganildi. Tajriba-sinov ishlari davomida sinf kutubxonasi tashkil etish, "Eng faol kitobxon" tanlovi, ifodali o'qish mashg'ulotlari hamda sinfdan tashqari mutolaa tadbirlari yo'lga qo'yildi. Olingan natijalarni qayta ishlashda qiyosiy tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar orqali boshlang'ich ta'limda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning samarali yo'llari belgilab olindi.

Muzokara

Tadqiqot jarayonida olingan natijalar boshlang'ich ta'limda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish o'quvchilarning bilim olish faolligi va ma'naviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, muntazam ravishda kitob o'qishga jalb qilingan o'quvchilarning nutqi ravonlashdi, lug'at boyligi kengaydi hamda fikrini erkin ifodalash ko'nikmalari rivojlandi. Tajriba-sinov ishlari davomida sinf kutubxonasi tashkil etish, kitobxonlik tanlovlari va ifodali o'qish mashg'ulotlari o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otdi. Ayniqsa, rag'batlantirish asosida tashkil etilgan "Eng faol kitobxon" kabi tadbirlar bolalarda mutolaa qilishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytirdi. Bu esa kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda amaliy faoliyatning muhim ekanini ko'rsatadi.

Muzokaralar davomida ayrim muammolar ham aniqlandi. Jumladan, ba'zi oilalarda kitob o'qish muhiti yetarli emasligi, bolalar adabiyotlariga qiziqishni oshiruvchi vositalarning kamligi hamda raqamli qurilmalarga ortiqcha qiziqish kitob mutolaasiga salbiy ta'sir etmoqda. Shu sababli maktab va ota-onalar hamkorligini kuchaytirish zarur. Shuningdek, o'qituvchilarning zamonaviy interfaol metodlardan foydalanishi, elektron kutubxonalar va audio kitoblarni ta'lim jarayoniga joriy etishi samaradorlikni oshiradi. Demak, boshlang'ich ta'limda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish uzluksiz, tizimli va hamkorlikka asoslangan jarayon bo'lishi lozim.

Xulosa

Boshlang'ich ta'limda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish o'quvchilarning intellektual, ma'naviy va nutqiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlanadi. O'tkazilgan tahlil va amaliy ishlar shuni ko'rsatdiki, muntazam mutolaa o'quvchilarda mustaqil fikrlash, so'z boyligini oshirish hamda o'qishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Shuningdek, sinf va maktab kutubxonalarining faol ishlashi, ifodali o'qish mashg'ulotlari, kitobxonlik tanlovlari hamda sinfdan tashqari o'qish tadbirlari

o‘quvchilarning kitobga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Bu jarayonda o‘qituvchi va ota-onaning hamkorligi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta‘lim bosqichida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish tizimli ravishda tashkil etilsa, u kelajakda bilimli, ma‘naviy yetuk va keng dunyoqarashga ega shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mavlonova R., Vohidova N., Rahmonqulova N. Pedagogika. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2010.
2. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2005.
3. Yo‘ldoshev J. Ta‘lim jarayonida zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent: “Ma‘naviyat”, 2012.
4. Suxomlinskiy V. A. Bolalarga qalbimni bag‘ishlayman. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1981.
5. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.
6. O‘zbekiston Respublikasi Ta‘lim to‘g‘risidagi Qonuni. – Toshkent, 2020.
7. Boshlang‘ich ta‘lim bo‘yicha davlat ta‘lim standarti. – Toshkent, 2021.
8. Qodirov M. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish metodikasi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2015.
9. Karimova G. Bolalar adabiyoti va kitobxonlik madaniyati. – Toshkent, 2018.
10. Internet resurs: www.edu.uz – Ta‘lim portali.

